

Date: 11th October-2025

“DEVONI FONIY”DAGI TAVR G’AZALLARINING NASHRLARI HAQIDA

Moxina Rasulova

BuxDU Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik
ixtisosligi magistranti

Annotatsiya: Maqolada Alisher Navoiyning “Devoni Foni” sidan o’rin olgan tavr g’azallarini Navoiy asarlarining 15 tomlik nashri va 20 tomlik mukammal asarlari nashridagi farqlari aks etgan.

Kalit so’zlar: Devoni Foni, nashr, ilmiy-tanqidiy matn, qo’lyozma, tavr, devon, uslub.

Annotation: The article reflects the differences between the tavr ghazals included in Alisher Navoi's "Devoni Foni" based on the 15-volume edition of Navoi's works and the 20-volume edition of his complete works.

Keywords: Devoni Foni, edition, scholarly-critical text, manuscript, tavr, divan, style.

Аннотация: В статье рассматриваются различия между газелями в стиле тавр, включенными в «Девани Фоний» Алишера Навои, на основе 15-томного издания произведений Навои и 20-томного издания его полных сочинений.

Ключевые слова: Девани Фоний, издание, научно-критический текст, рукопись, тавр, диван, стиль.

Azaldan azaldan Sharq eli turkiy va forsiy tildan birdek foydalanib kelganligi tarixiy manbalar orqali ma’lumdir. Sharq adabiyotini turkiy va fors-tojik tilidagi asarlarsiz taasavvur qilib bo’lmaydi. Alisher Navoiy ham turkiy tilning naqadar boy ekanligini o’zining yaratgan asarlari tufayli isbotlab bergan bo’lsa, forsiy tilda yaratgan g’azal-u qasidalar bilan bu tilda ham o’zining qalamini naqadar o’tkirligini ko’rsatib o’tadi.

“Devoni Foni”ni hozirgi ilmiy -tanqidiy matni Parijdagi 285, 1345, Tehrondagi 15002, Turkiyadagi 3850, 1952 raqamli qo’lyozmalarini solishtirgan holda tayyorlangan. Shunga qaramay, devonning bir qancha nashrlarida tafovutlar mavjud. Biz Navoiyning tavr g’azallarini o’rganar ekanmiz, bir qancha faqrli jitahlarga ko’zimiz tushdi. O’zi tavr g’azali qanday yoziladi degan savolga, avvalo, javob berib o’tsak. Tavr so’zining lug’aviy ma’nosi biror narsa atrofida aylanish, tarz, yo’sin, usul, tartibni, odatni anglatadi. Adabiyotshunoslikda biror she’rning mohiyati uslubini olib, shu yo’sinda asar yozishdir. Devoni Foniya shunday g’azallar mavjud. Masalan, “Dar tavri Xoja”, “Tatabbu’ Maxdum, dar tavri Xoja”. Bunday g’azallarda vazn, qofiya, radif mezon qilib olinmaydi, balki uslub, mazmunni she’riy talqiniga, uslub, rangga rioya qilinadi. Bu adabiy yo’l shoirlarning o’zaro musobaqasi yo’sinida bo’lib, mazmun o’zgalik, jilolarning yangicha talqinini yaratishga undar edi. Yangicha talqinda esa timsollar, badiiy vositalar, bayondagi adolarga alohida-alohida e’tibor qilish darkor bo’lar edi.

Navoiy asarlarining 15 tomlikdagi nashrida “Devoni Foni” 5-tomida aks etadi. Bu devon 2 kitobdan iborat bo’lib, uning 2- kitobiga 9 ta tavr g’azali kiritilgan. Ular quyidagilar:

- 1) Dar tavri Maxdum (Nihod piri mug’on... 22 -bet)



Date: 11th October-2025

- 2) Dar tavri Maxdum (Dar dayri mug'on... 80- bet)
- 3) Dar tavri Xoja Kamol (Buvad hamchun dili... 90-bet)
- 4) Dar tavri Xoja (Shabe kaz maykada... 172-bet)
- 5) Dar tavri Xoja (Gadoyi maykadayu ishq ... 196-bet)
- 6) Dar tavri Maxdum (Meni halok az hajru... 200-bet)
- 7) Dar tavri Mir (Tu gashti kajkulohi ... 208-bet)
- 8) Dar tavri Xoja (Nest dar dayri mug'on... 234-bet)
- 9) Dar tavri Xoja (Shab chu shikast... 242-bet)

Mana shu berilgan g'azallarni Alisher Navoiyning Mukammal asarlar to'plamidagi 19-jilddagi xuddi shu g'azallar bilan qiyoslab ko'rganimizda tafovutli o'rinlarni ko'rdik. Nisbatan keyinroq nashr qilingan Mukammal asarlari to'plamining 19-jildida 11ta tavr g'azali kiritilgan bo'lib, shulardan 6tasi 5- tomdagi 6ta g'azal bilan mos tushdi. 5- tomdagi 9ta tavr g'azaldan qolgan 3tasi Mukammal asarlar to'plamining 18-jildiga kiritilgan. Biz esa mana shu 6ta mos tushgan tavr g'azallarni nashrlararo qiyosan solishtirganimizda quyidagicha farqlarni aniqladik.

Dar tavri Maxdum, ya'ni shoir Maxdum usulida yozilgan ushbu g'azalning 4-bayti 15 tomlikdagi nashrda quyidagicha berilgan:

Tamomi daftari **odobi** ishq yak harf ast,

Suxan daroz kashid, az nizoi ahli xilof (22b).

19-jilddagi nashrda esa quyidagicha:

Tamomi daftari **azobi** ishq yak harf ast,

Suxan daroz kashid, az nizoi ahli xilof (162 b)

Ma'nosi: Ishq **odobining** hamma daftari bir harfdir,

xilof ahlining janjalidan bu to'g'rida so'z uzaygan..

Qizig'i shundaki, ushbu g'azalning ma'nosi ikkala nashrda ham bir xil berilgan. Ya'ni **odobi** so'zi bilan. Odob so'zi arabcha so'z bo'lib, yurish –turishdagi yaxshiliklar, xushxulqlik, xushmuomalalik degan ma'nolarni bildiradi. Azob so'zi ham arabcha so'z bo'lib, Qur'oni Karimdagi azob oyatlarini anglatar ekan. Qaysi so'z nashrda xato ketganligini aniqlash uchun biz ushbu baytdan oldingi baytga murojaat qilamiz:

Ey so'fiy, agar matlubing kalit va kashshofning kashfi bilan ochilmasa,

Ishq darsiga kirib saboq o'rgan.

Bilamiz, har bir saboqning tagida odob-axloq qoidalari turadi. Shoir aytmoqchiki, ishq darsiga kirib ishq odobidan saboq ol, ishq odobiga bag'ishlangan qaysi bir kitobning varag'ini ochma, baribir hammasida bir so'z, bir harf yozilgan, bu so'zlarga qarshi chiqqanlarning janjalidan esa bu to'g'rida so'z cho'zilib uzayib ketgan. Shunday qilib, 15 tomlikdagi odobi so'zi g'azal matniga azobi so'zidan ko'ra mos tushgan degan fikrdamiz.

Dar tavri Xoja Kamol ya'ni Xoja Kamol uslubida yozilgan “ Buvad hamchun dili.” g'azalining ham 6-baytida farqli o'rin mavjud. 15 tomlikda quyidagicha berilgan:

Shuoash xonai toriki dilro kard nuroniy,

Chu **soqiy** dosht pyesham oftobi may ba zarrinjom (90b).

19-jildda esa quyidagicha:

Shuoash xonai toriki dilro kard nuroniy



Date: 11th October-2025

Chu **toqiy** dosht pyesham oftobi may ba zarrin jom (238b).

Ma'nosi: Soqiy qoshimga kelib oltin jomda may oftobini tutgach,
uning porlagan nuri qorong'i dilimni ravshan qildi.

Bu g'azalning ma'nosi ham ikkala nashrda bir xil berilgan. Bizningcha ham **soqiy** so'zi bilan ifodalangan g'azalda nashrda xatolik yo'q. Chunki buni baytning ma'nosi ham yaqqol aytib turibdi. Ushbu g'azalda ham 15 tomlikdagi soqiy so'zi nashrda xatolikka yo'l qo'yilmasdan ko'chirilgan.

Xulosa qilib aytganimizda, nisbatan keyin nashr qilingan bo'lsa ham Navoiyning 20 tomlik mukammal asarlari to'plami ham nashrdagi xatolardan butkul soqit qilinmagan.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Алишер Навоий. Асарлар. XV томлик. 5-том –Т.: Бадий адабиёт, 1965.
2. Алишер Навоий. Мукамал асарлар тўплами. XX томлик. 19-том. Тошкент: "Фан", 2002.
3. Навоий асарлари луғати(тузувчилар:П.Шамсиев, С.Иброҳимов)- Т.:Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти ,1972.
4. Эркинов А. Матншуносликка кириш. Тошкент - 1997.
5. Ҳайитметов А. Навоий даҳоси. –Т.: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1970.

